

**SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHDA FUQAROLIK-HUQUQIY  
JAVOBGARLIK**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti  
393-o'quv guruhi kursanti;  
Narziloyeva Shahlo Nodir qizi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sun'iy intellekt tushunchasining jamiyatimiz hayotiga kirib kelishi va huquqiy tomondan tartibga solish masalalari, SI imkoniyatlaridan ijtimoiy turmushning turli sohalarida foydalanish, uning faoliyati yuzasidan kelib chiqadigan oqibatlar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi, SI tomonidan davlat, jamiyat, fuqaro boshqa subyektlarga yordam ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy masalalarini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Xalqaro miqyosda ham Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish masalalari hamda shu sababdan keltirib chiqarilayotgan muammolar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, AI (artificial intelligence), huquq, raqamli texnologiyalar, tarmoqlar, javobgarlik, aqlli robotlar, mualliflik huquqi, intellektual mulk.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы внедрения понятия искусственного интеллекта в жизнь нашего общества и правового регулирования, система социально-правовых отношений, связанных с использованием возможностей си в различных сферах общественной жизни, гражданско-правовой ответственностью за последствия, возникающие в результате его деятельности, вопросы регулирования Си организационно-правовых вопросов оказания помощи государству, обществу, гражданину и другим субъектам. анализ нормативно-правовых актов. На международном уровне также рассматриваются вопросы правового регулирования искусственного интеллекта и проблемы, которые он создает.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, ИИ (искусственный интеллект), право, цифровые технологии, сети, ответственность, интеллектуальные роботы, авторское право, интеллектуальная собственность.

**Abstract:** This article discusses the issues of introducing the concept of artificial intelligence into the life of our society and legal regulation, the system of socio-legal relations related to the use of AI capabilities in various spheres of public life, civil liability for the consequences arising from its activities, the regulation of AI organizational and legal issues of assistance to the state, society, citizens, and other

entities. analysis of regulatory legal acts. The issues of legal regulation of artificial intelligence and the problems it creates are also being considered at the international level.

**Keywords:** Artificial intelligence, AI (artificial intelligence), law, digital technologies, networks, responsibility, intelligent robots, copyright, intellectual property.

Hozirgi kunga kelib, nanotexnologiyalarning rivojlanishi va jamiyat hayotining barcha sohalari shiddat bilan raqamlashtirilayotganli sababli Sun'iy intellektning rivojlanishi robototexnikaning rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo hamjamiyati Sun'iy intellektga ega bo'lgan robotlarni sinovdan o'tkaza boshladilar. Biroq Sun'iy intellekt va robotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlar qay darajada huquqiy jihatdan tartibga solinishi, qolaversa, sun'iy intellekt va Sun'iy intellektga asoslangan robotlarning javobgarlik masalalari hanuzgacha bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda.

SI sohasidagi huquqiy muammolar juda munozarali va bahslidir. Tashqi ma'lumotni idrok etish va tahlil qilish yo'li bilan o'rgatilgan tizim (robot) uni yaratuvchilar oldindan ko'ra olmaydigan tarzda harakat qilishi mumkin [1] va xatti-harakatlarning taxminiyligi yoki boshqacha aytganda, xatti-harakatlarning oldindan bashorat qilinishi mumkinligi zamonaviy huquqiy yondashuvlar uchun robot xatti-harakatlarini tartibga solish uchun bosh asosga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, Sun'iy intellektga o'xshash tizimlar uni yaratuvchilar yoki operatorlardan mutlaqo mustaqil ishlashini hisobga olsak, bu holat choralar va yuridik javobgarlik predmetini aniqlashni juda qiyinlashtiradi. SI faoliyati muammolarni keltirib chiqaradi, chunki uning harakatlarini oldindan yetarli darajada aytishni imkoniyatini bermaydi va ayni paytda o'ziga xos mas'uliyatni nazarda tutmaydi [2].

Shunday bo'lsada, Sun'iy intellektdan foydalanish keng tarqalmoqda va ularni huquqiy tartibga solish hayotiy zaruratga aylangan. SI dan foydalanish sohasini tartibga solish uchun bir necha qonunlar, qoidalar loyihalari ko'rib chiqildi va konferensiyalar o'tkazildi. Jumladan, 2017-yil yanvar oyida Asilomar shahrida (Kaliforniya, AQSh) Hayotning kelajagi instituti (Boston) tomonidan tashkil etilgan foydali AI bo'yicha Asilomar konferensiyasi bo'lib o'tdi. Sun'iy intellekt, iqtisodiyot, huquq, etika va falsafa sohasidagi 100 dan ortiq taniqli tadqiqotchilar ushbu konferensiya ishtirokchilari bo'lishdi, natijada Sun'iy intellekt (Asilomar AI Principles) sohasidagi tadqiqotlar uchun tamoyillar ishlab chiqildi. Keyinchalik yana bir necha ming olimlar, dasturchilar, tadbirkorlar va ekspertlar, jumladan Stiven Xoking, Ilon Mask, Google, Apple, Facebook, IBM, Microsoft va boshqalar vakillari ushbu tamoyillarga imzo chekdilar. Konferensiya yakuniy hujjatning kirish qismiga ko'ra, Sun'iy intellekt allaqachon butun dunyo bo'ylab ulardan foydalanadiganlar

uchun foydali vositalarni yaratishga imkon berdi. Sun'iy intellektning belgilangan tamoyillarga muvofiq yanada rivojlanishi odamlarga o'nlab yillar va hatto asrlar davomida yordam berish uchun yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

### **Azilomar tamoyillari:**

Sun'iy intellekt tadqiqotining maqsadi maqsadsiz aqlni emas, balki insoniyatga foyda keltirishga qaratilgan tizimlarni yaratish sohasida bo'lishi kerak.

Sun'iy intellektga investitsiyalar Sun'iy intellektning foydali ilovalarini topishga qaratilgan tadqiqotlarni moliyalashtirish bilan birga bo'lishi kerak, bu kontekstda kompyuter fanlari, iqtisodiyot, huquq, etika va ijtimoiy fanlar sohasidagi murakkab savollar ko'rib chiqiladi. Bu savollardan ba'zilari: - kelajakdagi Sun'iy intellektning ishonchliligini tizimlar o'z dasturlarini nosozliklar va xakerlik hujumlari tahdidiga duchor bo'lmasdan bajarishi uchun qanday ta'minlash kerak? - inson mehnati darajasini kamaytirmasdan va uning maqsadini saqlamasdan jarayonlarni avtomatlashtirish orqali farovonlik darajasini qanday oshirish mumkin? - qanday qilib huquqiy tizimni yanada samarali va adolatli qilib, uni Sun'iy intellektning rivojlanishiga mos ravishda o'zgartirish va undan foydalanish bilan boliq barcha huquqiy xavflarni hisobga olish kerak? - Sun'iy intellekt asosida qanday qadriyat yo'nalishlari yotishi va u qanday huquqiy va ma'naviy maqomga ega bo'lishi kerak?

AI tadqiqotchilari va siyosiy rahbariyat o'rtasida konstruktiv va solom muloqot kerak.

Tadqiqotchilar va Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiquvchilar o'rtasida hamkorlik madaniyati, ishonch va ochiqlik rabatlantirilishi kerak.

AI ni ishlab chiqish guruhlarini xavfsizlik standartlari noto'ri bajarilishini oldini olish uchun bir-biri bilan faol muloqot qilishlari kerak.

Sun'iy intellekt tizimlari butun hayotiy tsikli davomida xavfsiz va himoyalangan bo'lishi kerak va agar kerak bo'lsa, Sun'iy intellektning muntazam ishlashi osongina tekshirilishi kerak.

Tizimdagi nosozliklarning ochiqligi: agar Sun'iy intellekt tizimi zarar keltirsa, uning sababini aniqlash mumkin bo'lishi kerak.

Adliya tizimi uchun ochiqlik: sud qarorini qabul qilishda avtonom Sun'iy intellekt tizimining har qanday ishtiroki qoniqarli asosli bo'lishi va vakolatli organlar tomonidan tekshirish uchun mavjud bo'lishi kerak.

Mas'uliyat: ilor Sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiquvchilari va yaratuvchilari Sun'iy intellektdan foydalanish, suiiste'mol qilish va xatti-harakatlari oqibatlarining ma'naviy tomonidan bevosita manfaatdordirlar va bunday oqibatlarni yaratish uchun javobgarlik ularning zimmasiga yuklanadi.

Qiymat sinxronizatsiyasi: Yuqori darajadagi avtonomiyaga ega bo'lgan AI tizimlari ularning maqsadlari va xatti-harakatlari ish davomida insoniy qadriyatlarga mos keladigan tarzda ishlab chiqilishi kerak.

Sun'iy intellekt tizimlarining dizayni va faoliyati inson qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va madaniy xilma-xillik oyalariga mos kelishi kerak.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: agar Sun'iy intellekt tizimlari ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, odamlar shaxsiy ma'lumotlarga kirish, qayta ishlash va nazorat qilish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik: shaxsiy ma'lumotlarga Sun'iy intellekt tizimlarini qo'llash odamlarning haqiqiy yoki tasavvur qilingan erkinligini asossiz ravishda kamaytirmasligi kerak.

Umumiy foyda: AI texnologiyalari imkon qadar ko'proq odamlarga foyda keltirishi kerak.

Birgalikda farovonlik: Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan iqtisodiy foyda butun insoniyatga foyda keltirishi uchun keng taqsimlanishi kerak.

Sun'iy intellektni inson nazorati: odamlar shaxs tomonidan qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun qaror qabul qilish funksiyasini Sun'iy intellekt tizimiga o'tkazish tartibi va darajasini aniqlashlari kerak.

Tizim barqarorligi: ilor AI tizimlarini boshqarishda ta'sirga ega bo'lganlar jamiyat salomatligi boliq bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni hurmat qilishlari va yaxshilashlari kerak, ularga putur etkazmasliklari kerak.

Sun'iy intellekt sohasida qurollanish poygasi: avtonom o'ldiradigan qurollar sohasida qurollanish poygasidan qochish kerak.

Imkoniyatlarni kam baholash xavfi: Kelajakdagi Sun'iy intellekt imkoniyatlarining yuqori chegarasi haqida kuchli taxminlardan qochish kerak, ayniqsa bu masala bo'yicha konsensus mavjud bo'lmaganda.

Ilor Sun'iy intellekt Yerdagi hayot tarixini inqilob qilish potentsialiga ega va tegishli resurslar va juda ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilishi va boshqarilishi kerak.

Xatarlar: Sun'iy intellekt tizimlari bilan boliq potentsial xavflar, ayniqsa halokatli yoki umuman hayotga xavf tudiruvchi xavflarni rejalashtirish va potentsial ta'sirga mos ravishda kamaytirish choralari bilan boshqarilishi kerak.

Rekursiv avtomatik o'rganish: o'z algoritmlari samaradorligini oshirish va o'z-o'zini takrorlash uchun mo'ljallangan, sifat va miqdorning tez o'zgarishiga olib keladigan AI tizimlari qat'iy tartibga solish va nazorat choralari bo'ysunishi kerak.

Umumiy manfaat: super intellekt faqat bir davlat yoki tashkilot uchun emas, balki ko'pgina axloqiy ideallarga mos keladigan va butun insoniyat manfaati uchun ishlab chiqilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishda hisobga olinishi zarur. Sun'iy intellektdan foydalanish sohasida fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalarini belgilash uchun bir qator yondashuvlar mavjud.[3]

Ulardan biri sifatida yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarga o'xshash qoidalarni qo'llashni ko'rsatishimiz mumkin [4]. Bu mantiqan to'g'ri, chunki yuridik shaxs Sun'iy ravishda yaratilgan qonun subyekti [5], robotlar ham shunday maqomga ega bo'lgan shaxslar sifatida tan olinishi mumkin. Masalan, 2000-yilda Hindiston Oliy sudi sikxlarning asosiy muqaddas matni Guru Granth Sahibni yuridik shahs sifatida tan oldi. Ammo, yuridik shaxsga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralarining Sun'iy intellektga nisbatan qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi, chunki yuridik shaxslar faqat ushbu yuridik shaxs nomidan harakat qilayotgan aybdor jismoniy shaxs mavjud bo'lgandagina jinoiy javobgarlikka tortiladilar [6]. O'z navbatida, Sun'iy intellektga asoslangan tizimlarning harakatlari inson harakatlari bilan bog'liq emas.

Ba'zi olimlar, Sun'iy intellektga nisbatan hayvonlarga oid qoidalarni qo'llash takliflarini ilgari suradilar. Milliy qonunchilikda ushbu toifadagi mulkka egalik qilishning umumiy qoidalari qo'llaniladi (Fuqarolik kodeksining 93-moddasi). Shunday qilib, javobgarlik masalasi Fuqarolik kodeksining 1002-moddasiga to'g'ri keladi: Uy hayvoni tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning egasi yoki hayvonning egaligi va foydalanishida umumiy asosda javobgar bo'lgan shaxs mas'ul hisoblanadi deb ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, hayvonlarga oid qoidalarni qo'llash bo'yicha takliflar yuridik javobgarlikni belgilash nuqtayi nazaridan biroz cheklangan. Birinchidan, jinoyat qonuni doirasidagi normalarning o'xshashligi qoidalariga muvofiq robotlarga nisbatan hayvonlarning javobgarligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llashning qabul qilinishi mumkin emas. Ikkinchidan, bu qoidalar, birinchi navbatda, uy hayvonlariga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni oddiy sharoitlarda ular egalariga yoki boshqalarga zarar yetkazmaydi. Shu sababli bugungi kunda yovvoyi hayvonlarni saqlash qoidalariga o'xshash qoidalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilmoqda, chunki bu qoidalar yanada qat'iydir [7]. Biroq qat'iy qoidalar SI texnologiyalarini joriy etish jarayonini to'xtatishi yoki tanqidiy ravishda sekinlashtirishi mumkin.

**Xulosa.** Sun'iy intellektni yaratish bilan bog'liq ulkan imkoniyatlar bilan bir qatorda yaqin kelajakda uni joriy qilish bilan bog'liqlikda hal etilishi lozim bo'lgan qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, texnologik, huquqiy muammolar ham mavjud. Xususan SI dan foydalanishda fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarining ishlab chiqilmasligi salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The Mechanical Mind in History, Cambridge, MA: MIT Press: PP. 149–184

2. Asaro P. The Liability Problem for Autonomous Artificial Agents // AAAI Symposium on Ethical and Moral Considerations in Non-Human Agents, Stanford University, Stanford, CA. March 21–23, 2016, P. 191.
3. Asilomar AI tamoyillari, 2017. URL: <https://futureoflife.org/ai-principles/?cn-reloaded=1> (kirish 12/10/2021).
4. Arkhipov, V., Naumov, V. – P. 164.
5. Winkler A. We the Corporations: How American Businesses Won Their Civil Rights. Liverlight, 2018. See a description here: [Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.](#)
6. Khanna V.S. Corporate Criminal Liability: What Purpose Does It Serve? // Harvard Law Review. 1996, No. 109, PP. 1477–1534.
7. Asaro P. The Liability Problem for Autonomous Artificial Agents, P. 193.